

## BOSHLANG'ICH VA YUQORI SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH: METODIK UZVIYLIK MUAMMOSI

*No'monova Kamolaxon Abdug'opir qizi*

*Matematika yo'nalishi talabasi,*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

E-mail: [nomonovakamola07@gmail.com](mailto:nomonovakamola07@gmail.com)

*Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilariga matematika darsida metodikani qo'llash jarayonida yuzaga keladigan muammo va vaziyatlar haqida aytib o'tganmiz. Shu bilan birgalikda muammolarni yechimi haqida ham aytib o'tdilgan.*

*Kalit so'zlar: Uzviylik, abstrakt tushunchalar, uslubiy muammolar, uslubiy muammolar, Terminologiya*

**Teaching mathematics in primary and secondary schools: the problem of methodological coherence**

*Abstract: In this article, we have mainly discussed the problems and situations that arise during the application of the methodology in mathematics lessons to elementary and high school students. At the same time, we have also discussed the solutions to the problems.*

*Keywords: Membership, abstract concepts, methodological problems, methodological issues, Terminology*

**Преподавание математики в начальной и средней школе: проблема методологической согласованности.**



*Аннотация: В данной статье мы рассмотрели проблемы и ситуации, возникающие при применении методики на уроках математики у учащихся начальной и средней школы. Одновременно мы также обсудили решения этих проблем.*

*Ключевые слова: членство, абстрактные понятия, методологические проблемы, методологические вопросы, терминология*

Matematika ta'limi o'quvchining butun maktab davomida oladigan eng muhim fanlardan biridir. Ammo ko'pincha, boshlang'ich sinflarda matematikani yaxshi o'rganib kelgan o'quvchilar yuqori sinflarda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Buning asosiy sabablaridan biri - boshlang'ich va yuqori sinflarda matematika o'qitish metodikasi o'rtasidagi uzviylikning yetarli darajada ta'minlanmaganligidir.

Biz quydagi savolga javob izlash bilan boshlasak. Uzviylik nima va nega muhim?

Metodik uzviylik deganda, turli sinflarda matematika o'qitish usullari, materiallari va talablari o'rtasidagi muvofiqlik va izchillik tushuniladi. Bu nafaqat o'quv dasturining mazmuniga, balki o'qitish usullari, baholash mezonlari va hattoki o'qituvchilarning yondashuviga ham taalluqlidir.

Uzviylikni saqlash muhim, chunki unda;

1. O'quvchilar yangi bilimlarni avvalgi bilimlariga tayangan holda osonroq o'zlashtira oladilar.
2. Matematik fikrlash doimiy va uzluksiz rivojlanib boradi.
3. O'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishi saqlanib qoladi.

Agar yuqoridagidek muhim bo'ladigan bo'lsa unda qanday muammolar mavjud?

Men sizga muammolar va sabablarini birma-bir keltirib o'taman.



### 1. Mazmun muammolari

Boshlang'ich sinflarda matematika ko'pincha amaliy hisoblash ko'nikmalariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Yuqori sinflarda esa abstrakt tushunchalar, mantiqiy fikrlash va isbotlash ustuvor bo'ladi. Bu o'tish ba'zan juda keskin bo'lib, o'quvchilar tushunmay qolishiga sababchi bo'ladi.

### 2. Uslubiy muammolar

Boshlang'ich sinflarda o'yinli metodlar, rangli rasmlar, qo'lda hisoblash ko'proq qo'llanilsa, yuqori sinflarda ko'proq nazariy material, formulasimon yondashuvlar qo'llaniladi. Ba'zan bu o'tish birdaniga sodir bo'ladi.

### 3. Til va terminologiya muammosi

Boshlang'ich sinflarda oddiyroq til, kundalik so'zlar qo'llaniladi, agarda boshlang'ich sinflardagi o'quvchilarga ilmiy tarzda biror masala yoki misol tushuntirilsa ular tushunmaydilar, chunki unda uslubiy muammo bilan birga terminologik muammolar ham yuzaga keladi. Yuqori sinflarda esa ilmiy terminlar keskin ko'payadi.

Endi quydagi muammolarga yechimlar va tavsiyalar beramiz.

1. Bosqichma-bosqich o'tish - Abstrakt tushunchalarni aniq misollar orqali tushuntirish. Masalan, algebraik ifodalarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash.

2. O'quv dasturlarini uyg'unlashtirish - Boshlang'ich va yuqori sinflar o'qituvchilari birgalikda ishlashi, o'quv materiallarini muvofiqlashtirishi kerak.

3. Metndlarni aralashtirish - Yuqori sinflarda ham vizual materiallar, amaliy misollar, o'yinli elementlardan foydalanish mumkin.

4. Terminologiyani asta-sekin kiritish - Yangi atamalarni boshlang'ich sinflardan boshlab, oddiy tushuntirishlar bilan tanishtirish.



5. O'tish davrini yumshatish - 4-5 sinflar orasida maxsus "ko'prik" darslari o'tkazish, o'quvchilarni yangi metodikaga tayyorlash.

#### Xulosa

Matematika ta'limidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan turli bosqichlar o'rtasidagi uzviylikka bog'liq. Boshlang'ich va yuqori sinflar o'qituvchilarining yaqin hamkorligi, o'quv materiallarining izchilligi va metodik yondashuvlarning uyg'unligi har bir o'quvchining matematik savodxonligini oshirishga yordam beradi. Buning uchun nafaqat o'qituvchilar, balki darslik mualliflari, metodistlar va ta'lim boshqaruv organlarining ham jamoaviy sa'y-harakatlari zarur. Maktab matematika kursi - bu uzluksiz rivojlanuvchi tizim bo'lib, unda har bir bosqich oldingisining mantiqiy davomi bo'lishi kerak. Faqat shunda biz matematikani chindan ham tushunadigan, uni hayotda qo'llay oladigan va fanga qiziqadigan yoshlarni tarbiyalay olamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimuhamedov B., Jumayev M. **Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.** – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Jumayev M.E. **Matematika o'qitish metodikasi.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Karimov I.A. **Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Abdullayeva Q., Rasulova D. **Boshlang'ich ta'lim metodikasi.** – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
5. Skatkin M.N. **Didaktika sredney shkoly.** – Moskva: Prosveshcheniye, 2015.